

## HAYVON ARXISEMALI LEKSEMALARINING INSON HOLATINI YORITISHDAGI O'RNI

**Ismailova Dilnoza Shavkatovna**

O'zMU O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

[dilnoza19850426@gmail.com](mailto:dilnoza19850426@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Badiiy matnlarda ijodkorlar tomonidan kitobxon ko'z o'ngida asar qahramonlarining turli vaziyatlardagi ruhiy holatini to'laqonliroq tasvirlash uchun hayvon arxisemali leksemalardan unumli foydalilaniladi. Bu asar ta'sirchanligini oshirishga yordam beradi. Ushbu maqolada shu haqda so'z boradi, fikrlar misollar orqali izohlanadi va xulosalar qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** arxisema, leksema, metafora, zoonimlar, lingvopoetika, badiiy matn.

### **ABSTRACT**

*In literary texts, a work by creators before the eyes of the reader to more fully describe the mental state of his characters in different situations lexemes with animal archetypes are used effectively. This work is impressive helps to increase. This article will talk about it, thoughts and examples are interpreted and conclusions are drawn*

**Keywords:** archiseme, lexeme, metaphor, zoonyms, linguopoetics, in literary.

### **KIRISH**

Bugungi kunda kundan kunga rivojlanib borayotgan ona tilimiz yer yuzidagi eng qadimiy tillardan biri hisoblanadi. O'zbek tilining tarixiy ildizlari miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Tilimiz nihoyatda boy, so'z zaxirasi cheksizdir. Bir so'zning matn mazmunidan kelib chiqib ko'plab ko'chma ma'nolarda kelishi ham ona tilimizning imkoniyatlari cheksiz ekanligini ko'rsatadi. Masalan, it so'zi matndan tashqarida hayvon ma'nosini bildirsa, matn tarkibida haqarat ma'nosida, qalang'i-qasang'i ma'nosida (*it ham bit ham*), qiyalgan musofir ma'nosida (*adashgan itdek*), dilozor inson ma'nosida (*itlar tishlamasin yurakkinasin*), xorlik ma'nosida (*itdek xor bo'lmoq*), mehnatkash inson ma'nosida (*itdek ishlaromoq*) kabi ko'plab ma'nolarda ishlatilishini kuzatishimiz mumkin. Umuman olganda, hayvon nomlari badiiy asarlarda asosan ko'chma ma'nolarda ishlatiladi.

Estetik hodisa sifatida badiiy asar tilini o'rganish asnosida muallifning individual uslubiy mahorati, til tizimi imkoniyatlaridan qay darajada foydalana olganligiga ham e'tibor qaratiladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hayvon arxisemali leksemalarning lingvopoetik xususiyatlari mavzusini yoritish uchun Ma'rufjon Yo'ldoshevning "Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi" monografiyasidan foydalanildi.. Lingvopoetik tahlil bevosita badiiy matnlar ustida ishslash bo'lganligi uchun maqoladagi misollar Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Said Ahmad, Abdulla Qahhor, O'tkir Hoshimov, Tohir Malik, Luqmon Bo'rixon, Temur Ubaydullo va boshqa yozuvchilar asarlaridan olindi.

Shuningdek, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Zulfiya Isroilova, Saida Zunnunova, Zulfiya Mo'minova she'rlaridan ham foydalanildi.

Maqolada tavsiflash, tasniflash, komponent tahlil, funksional- semantik hamda statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

## NATIJALAR

Yozuvchilarimiz tomonidan kitobxon ko'z o'ngida asar qahramonlarining turli vaziyatlardagi ruhiy holatini to'laqonliroq tasvirlash uchun va asar ta'sirchanligini oshirish maqsadida hayvon arxisemali leksemalardan unumli foydalaniladi. Masalan, insonning beso'naqay, lapanglab yurishi –ayiqqa; tovlanib, noz-karashma bilan yurish tovusga; Qaddini tik tutib yurishi- g'ozga; jahl chiqishi- ilonga; har tomonga alanglab qarashi-o'g'ri mushukka; har ishga aralashish- pashshaga; qahramonning abgor holati- itga; tinimsiz mehnat qilish ho'kizga, itga, eshakka ( itdek ishlamoq, ho'kizdek ishlamoq, eshakdek ishlamoq); ijobiy ma'noda asalari yoki chumoliga o'xshatiladi Ushbu o'xshatishlarni badiiy asarlardan olingan misollar orqali ko'rib chiqamiz.

### 1.Insonning yurish holati:

**a)Tovusga:** *Lolaxon yangam o'sha kuni o'z sha'niga yomg'ir aralash yog'ayotgan tahsin-u tasannolardan bexabar, men bilan yetaklashib, "Madaniyat uyi" sari tovusdek tovlanib borar edi.*

(Luqmon Bo'rixon "Jaziramadagi odamlar" 118-bet)

Tovusdek tovlanish ushbu misolda bemalol, shoshmasdan noz-u karashmalar bilan bitta-batta qadam bosib yurish ma'nosida kelgan.

**b)Ayiqqa -Yigitlar, kelig'iz , zarplata olig'iz.**

*Betonchi Safar aka ayiqdek lapanglab vagoncha tomonga birinchi bo'lib yurdi.*

( O'. Hoshimov "Ikki eshik orasi" 4- bet)

**s) G‘ozga:**

Qayga bormay boshda do‘ppim,  
**G‘oz yurarman** gerdgayib,  
 Olam uzra nomi ketgan  
 O‘zbekiston o‘zbegin.

(E.Vohidov. “O‘zbegin” qasidas)

**2. Insonga xos shoshib qolish quyidagi hayvonlarga o‘xshatilgan:**

Shaxsga xos bo‘lgan shoshib qolish va tipirchilab qolish kabi holatlar ham yozuvchilar nazarida turlicha tasvirlangan:

**a) Bedanaga:** *Xotin chars bedanaday pitirlab, qochmoqchi bo‘lganida yuzini kannak gulning poyasiga urib oldi. Yuzi butoqqa yomon tegdi. Ko‘ngli ozdi.*

(Abdulla Qahhor “Mayiz yemagan xotin” 86-bet)

**b) Mushukka:** *Berdiquyl somsachining yoniga bordi. Likopchaga uchta somsa olib, choynakda choy bilan stolga keltirib qo‘ydi. Yigit, mushuk sichqonga tashlagandek, taomga yopishdi.*

(T. Ubaydullo “Pastlab uchgan turnalar” 71-bet)

*Akbarali mushukdek sapchib yo‘lakka borib qoldi. Orqasiga o‘girilib qaradi.*

(Said Ahmad “Ufq” trilogiyasi 182-bet)

**3. Insonning jahli chiqishi holati quyidagi hayvonlarga o‘xshatilgan:**

**a) Echkiga:** *Qarasam, cholim Oqsoqolning qorniga kalla qo‘yishni mo‘ljallagan suzong‘ich echkidek boshini quyi solganicha, ko‘zini olaytirib turibdi.*

(O‘. Hoshimov “Ikki eshik orasi” 283- bet)

**4. Insondagi qo‘rqish holati quyidagi hayvonlarga o‘xshatilgan:**

**a) Chumchuqqa:** *Bola bir irg‘ib mening kallamga qo‘yib yubordi. Men javob qilolmadim. Qarasam boshqa bolalar ham urmoqchi bo‘lib ilonni ko‘rgan chumchuqdek atrofimda chug‘urlashib turibdi.*

(A.Qahhor “O‘tmishdan ertaklar” 198-bet)

**b) O‘g‘ri mushukka:** *Xosiyat xola erini ishga kuzatgach, onam bilan yetaklashib Qalqonov muallimning anchadan beri kasal yotgan xotinini ko‘rib kelish uchun jo‘nashgani nur ustiga nur bo‘ldi. Men o‘g‘ri mushukdek alanglab qo‘shnimizning darvozasidan bosh suqdim.*

(Luqmon Bo‘rixon “Jaziramadagi odamlar” 62-bet)

**5. Insonning ruhiy azob chekish holati quyidagi hayvon holatlariga o‘xshatilgan:**

**a) Ilonga:** *Anvar bu zaharlik so‘z bilan ilon kabi to‘lgo‘nib olsa ham, butun kuchini sarf qilib, sir bermaslikka tirishdi.*

(A.Qodiriy “Mehrobdan chayon” 299-bet)

*Zum o‘tmay yelkasiga sochiq tashlab olgan maykachan Abdulla paydo bo‘ldi.*

*Ostonada turgan Dildoraga ko‘zi tushgan zahoti tipratikan yutgan ilonday qoldi.*

(Zulfiya Qurolboy qizi “Qadimiy qo‘shiq” 169-bet)

- *Boshimni qayyoqqa olib ketay! – Urush qilmay o‘lgurlar, uying kuygurlar, bolang o‘lgurlar! – u ilon chaqqan odamdek butun gavdasi bilan betoqat to‘lg‘anar, sochlari yoyilib, ko‘zlari olayib ketgan edi.*

(O‘. Hoshimov “Ikki eshik orasi “ 112- bet)

*“Hozir bostirib kiraman-u ikkalasiniyam haydab chiqaraman uyimdan!” –deya ilonday vishillagancha... ilonday sudralib ketib borardi u.*

( Zulfiya Qurolboy qizi “Qadimiy qo‘shiq” 299-bet)

**b)Bo‘riga:** *Sen bilmaysan Robiya! Qopqonga tushgan bo‘ridek o‘zini qay teshikka urishni bilmay qolgan dushmanni oldingga solib quvishning zavqi qanaqa bo‘lishini bilmaysan!*

(O‘. Hoshimov “Ikki eshik orasi “ 182- bet)

**s) Baliqqa:** *U zambil to‘la kartoshka ustiga tappa o‘tirib oldi. Hansirab nafas oldi. Rangida rang qolmagan, og‘zini baliqdek kata-katta ochar, hunoh ish qilib qo‘yib, dakki eshitishdan qo‘rqan boladek ayanchli iljayardi.*

( O‘. Hoshimov “Ikki eshik orasi “ 125- bet)

Yuqoridagi misollardagi ilon kabi to‘lg‘onmoq va tipratikan yutgan ilondek birikmalari qahramondagi bezovtalanish kuchli ruhiy holatni ochib berish uchun ishlatilgan.

**d)Itga:** *Men ko‘kragimni ko‘tarib yurishga o‘rganib qolgan yigitman. Men o‘z yurtimda musofir itdek dumimni qisib yurishni xohlamayman.*

(Abdulla Qahhor “Oltin yulduz” 9-bet)

Bundan tashqari insondagi ruhiy holatni ko‘rsatib berish uchun it quvgan gadoy iborasi ham ijodkorlar tomonidan mohirlik bilan ishlatilgan: *Dildora it quvgan gadoydek abgor holda uydan chiqarkan , bor kuchini, bor nafratini to‘plab shunday dedi:*

*-Hali ko‘ramiz kimniki bo‘lishini...*

(Zulfiya Qurolboy qizi “Qadimiy qo‘shiq” 170-bet)

*Azizzon shularni o‘ylaganda ichini it tatalagandek ingrab yuborar edi. Bugun u yotgan to‘shagi kuydirgandek erta tongda o‘midan turdi .*

(Said Ahmad “Ufq” trilogiyasi 21-bet)

Said Ahmad ham Azizbekdagi ruhiy azob chekish holatini ichini it talagandek iborasi bilan berishni o‘rinli deb topadi va bu bilan asar ta’sirchanligini oshiradi.

## 6. Tinmasdan gapirish holati:

*Boshqalar ham go‘yo shu jumboq ustida bosh qotirib turishganday biri qo‘yib, biri olib hayratlarini bitday to‘ka boshlashdi.*

( Luqmon Bo‘rixon “Jaziramadagi odamlar” 67-bet)

Ushbu olingan parchada Luqmon Bo'rixon tomonidan noodatiy o'xshatish qo'llanilgan. Insonning hayratlanishini bitning to'kilishiga o'xshatish badiiy asarlarda deyarli uchramaydi. Ko'pincha og'zaki nutqda ***bitlari to'kilmog*** iborasi maza qilmoq ma'nosida ishlatiladi. Masalan: O'rtoqlarim bilan maza qilib o'yin-kulgi qildik, ovqatlandik, suhbatlashdik, bitlarim to'kildi.

### 7. Hamma narsaga aralashish holati:

*Nimaga buncha atrofimda xira pashshadek o'ralashasan?! – deb baqirdi u, a'zoyi badani yana dir-dir titrashga tushdi. – Bor, yo 'qol, ko 'zimga ko 'rinma!*

(Zulfiya Qurolboy qizi "Qadimiy qo'shiq" 44-bet)

### 8. Insonning turish holati:

a) **G'ozga:** *Dadam hovliga tushgan joyida qaytib ayvonga chiqdi. Ikki yuzimdan qattiq o'pdi-da, sakrab pastga tushdi. Qaddini g'oz tutib eshik tomon yo'naldi.*  
(O'. Hoshimov "Ikki eshik orasi" 52- bet)

b) **Turnaga:** *Urush boshlanganiga ancha bo 'lgan bo 'sayam turmush uncha o'zgarmagan edi. Faqat tuz vasovun kamayib qoldi. Pochtaxonaga chiqsam, non do'kon oldida turnaqator navbat kutib turgan odamlarni ko 'rib yuragim ezildi.*  
( O'. Hoshimov "Ikki eshik orasi" 115- bet)

## MUHOKAMA

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, biror hayvonning holatini inson holatiga o'xshatishda hayvonning tabiatni, xarakteri birlinchi o'rinda turadi. Masalan, pashshaning odam yeydigan ovqatga va uning atrofidagi narsalarga qo'nishi insonga yoqmaganidek, hamisha bir insonning o'zi yoqtirmagan odamining yonida bo'lishi, hamma ishiga aralashishi baddiy matnlarda **xira pashsha** iborasi orqali keltiriladi. Bundan tashqari og'zaki nutqda va badiiy asarlarda ham yuvilmagan qoshiq iborasi ham yuqoridagi ma'nolarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Inson holatini yoritishda odamga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan hayvonlar: sher, yo'lbars, ayiq, buqa, ilon, chayonlar salbiy holatlarni ifodalasa, g'oz, qo'y, tovus, tovuq, asalari, chumchuq, echki kabi jonivorlar insonning, asosan, ijobiy holatini yoritish uchun ishlatiladi. Shuningdek, matn mazmunidan kelib chiqib ba'zan bir hayvon salbiy hamda ijobiy ma'nolarni ifodalashi ham mumkin. Masalan, it ijobiy ma'noda vafodorlikni, oriyatlilikni ifodalasa, salbiy ma'noda pastkashlikni, farosatsizlikni, ochofatlikni ham ifodalaydi.

Umuman olganda, badiiy matnlarda inson qiyofasini yoritishda, hayvonlarni holatidan kelib chiqib insonga o'xshatish odat tusiga kirib qolgan. Masalan, insonning mehnatkashligi chumoliga va asalariga, dovyurakligi sherga yoki yo'lbarsga, yuvoshligi qo'yga, ayyorligi tulkiga,(koreys madaniyatida tulki go'zallik ramzi) qo'rkoqlik quyonga, imillash toshbaqaga, beso'naqaylik va semizlik sigirga( hind xalqi madaniyatida sigir go'zallik ramzi) dilozor insonlar chayonga yoki ilonga o'xshatilganligini ko'rishimiz mumkin.

## XULOSA

- 1.Badiiy til va poetik nutq hodisalarini yuzaga chiqishi ijodkorning o‘ziga xos individualizmi va kasbiy mahoratidan dalolat beradi.
- 2.Hayvon arxisemali leksemlardan badiiy asarda asar qahramonlari tasvirida foydalanish asar jozibadorligini va uning estetik qimmatini oshirishga xizmat qiladi.
- 3.Insonlarni turli xil hayvonlarga o‘xshatish o‘zbek mentaliteti bilan ham bog‘liq,

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – T., Fan, 2007.
2. Berdiyorov H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. –T., O‘qituvchi, 1984.
3. Abdurahimov M. O‘zbekcha- Ruscha frazeologik lug‘at. T. 1980
4. Hakimov M. Yozuvchi va xalq tili. – Toshkent: Fan, 1971. – 176 b.
5. Abdulla Qahhor “Anor” hikoyalar to‘plami T. 1980-yil
6. Said Ahmad “Ufq” trilogiyasi –T., 2013-yil
7. Luqmon Bo‘rixon “Jaziramadagi odamlar” T. 2012-yil
8. Zulfiya Qurolboy qizi “Qadimiy qo‘sishiq” T. 2012-yil
9. O‘tkir. Hoshimov “Ikki eshik orasi” T. 2018-yil

## Internet saytlari.

1. <https://kk.convdocs.org/docs/index-138269.html?page=4>
2. <http://samxorfil.uz/yangiliklar/malika-ayyor-dostoni-tilida-zoonimlar>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/zoonimiya-proizvedeniym-m-prishvina>